



**Alisher**

---

**Navoiy**

(1441-1501)





# E'TIROF



- Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir.

**Islom Karimov**

- **Alisher Navoiy**  
**1441-yilning**  
**9-fevralida**  
**Hirotda**  
**tavallud topgan.**

A decorative border made of green vines with leaves and yellow flowers surrounds the text.

**To`liq ismi**

- **NIZOMIDDIN  
MIR ALISHER  
NAVOIY**



- Yosh Alisher 3-4 yoshlarida she'r yod olib, ko'plarni hayratga soldi. 5 yoshida maktabga bordi.

Bo'lajak sulton Husayn Boyqaro bilan birga o'qidi.





# HUSAYN BOYQARO

Farididdin  
Attor

Nizomiy  
Ganjaviy

**Ma'naviy  
ustozlari**

Xusrav  
Dehlaviy

Shayx  
Sa'diy



# IKKI TAXALLUS

- Bo'lajak shoir **7-8** yoshlaridan she'r mashq qila boshladi.
- Ikki tilda she'r yozdi, o'zbekchalariga «Navoiy», forschalariga «Foniy» taxallusini qo'ydi.

- «Navoiy» «navo» — «kuy» so'zidan olingan, «Foniy» esa forsha «vaqtincha» ma'nolarini berar edi.

- **Alisherning maktabdosh do'sti Husayn Boyqaro taxtga chiqishi bilan uni Samarqanddan Hirotga chaqirib oladi va muhrdor qilib tayinlaydi.**
- **1472-yildan vazirlik martabasiga ko'tariladi, 1487-88-yillarda Astrobodda hokim bo'lib ishlaydi.**




A decorative border with intricate floral and geometric patterns in shades of brown and gold, framing the central text.

Buyuk ijodkor  
**1501-yil 3-yanvar**  
kuni vafot etdi.



**Alisher Navoiyning qabri Hirotda.**  
**Hirotda esa Afgʻonistonda joylashgan.**



- Bobur xalqaro jamoat fondi 2015-yilda Afgʻonistonning Hirot shahridagi tarixiy Musallo maydonida joylashgan Alisher Navoiy maqbarasida obodonlashtirish ishlarini olib bordi.



# DEVONLARI

- *Navoiyning 8 ta devoni bo'lib, 7 tasini o'zi tuzgan:*
- **1. Ilk Devon-zamondoshlari tuzgan.**
- **2. “Badoe’ ul-bidoya”-1472-76-yillarda Navoiy tuzgan ilk devon.**
- **3. “Navodir un-nihoya” – 1476-83-yillar**
- **4. “Xazoyin ul-maoniy”- “Chor devon” – 1492-98-yillar.**
- **5. “Devoni Foniy” (8-devon) – 1491-1498-yillar.**



# TURLI YO`NALISHDAGI ASARLARI

- O'tmish mavzusida «Tarixi mulki Ajam» («Ajam, ya'ni arab bo'lmagan mamlakatlar tarixi»);
- «Tarixi anbiyo va hukamo» («Payg'ambarlar va donishmandlar tarixi») asarlarini yozgan.
- Aruzga doir «Mezon ul-avzon» («Vaznlar o'lchovi»);
- Tazkirachilikka oid «Majolis un-nafois» («Nafis majlislar») kabi asarlar yaratdi.
- Lug'atshunoslikka oid «Sab'atu abhur» («Yetti dengiz») nomli kitob yozdi.
- Muhokamat ul-lug'atayn» («Ikki til muhokamasi») asarida turk (o'zbek) va sort (fors) tillarini solishtirib, o'z ona tilining tunganmas imkoniyatlarini ilmiy asoslab berdi.

- Sharqda oʻtgan mashhur shayxlar, soʻfiylar hayoti haqida maʼlumot beruvchi **«Nasoyim ul-muhabbat»** («Muhabbat shabadalari») asarini yozib tugatdi.
- Soʻng umr boʻyi xayolini band etgan **«Lison ut-tayr»**ni qogʻozga tushirdi.
- Boshqalar bilan olib borgan yozishmalari — xatlarini toʻplab **«Munshaot»** («Xatlar») tuzdi.
- 1500-yilda buyuk mutafakkirning yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlarini oʻzida ifodalagan **«Mahbub ul-qulub»** («Koʻngillarning sevgani») asari maydonga keldi.



# TURKIY “XAMSA”

- 1483 — 1485 –yillarda yozilgan.
  - 51 000 misradan ortiq .
- “Xamsa” so`zi “Beshlik” ma’nosini beradi.

## Dostonlar

- «Hayrat ul-abror»;
- «Farhod va Shirin»;
- «Layli va Majnun»;
- «Sab’ai sayyor»;
- «Saddi Iskandariy».





**«Sab'ayi  
sayyor»  
dostoni**

## **Doston haqida ma'lumot**

- **“Sab’ai Sayyor” doston – 1484-yilda yozilgan.**
- **Ichki tuzilishi 38 bobdan iborat.**
- **Hajmi - 5000 bayt.**
- **Aruzning Hafif bahrida yozilgan.**

# **7 iqlimdan 7 hikoyat:**

- **1-hikoyat.** Shanba kuni, qora qasrda hindistonlik musofir “Axiy haqida” hikoyat aytadi.
- **2-hikoyat.** Yakshanba kuni,zarnigor qasrda rumlik musofir “Zayd Zahhob hikoyasi”ini aytib beradi.
- **3-hikoyat.** Dushanba kuni,yashil qasrda shahrisabzlik musofir “Sa’d haqida” hikoyat aytib beradi.
- **4-hikoyat.** Seshanba kuni, gulrang(Gulnoriy) qasrda 4-iqlimdan kelgan(Tarozlik-hindiston)musofir “Jo’na va Ma’sud” hikoyati.
- **5-hikoyat.** Chorshanba kuni,moviyrang qasrda 5-iqlim musofiri “Mehr va Suhayl” hikoyatini aytib beradi.
- **6-hikoyat.** Payshanba kuni, sandal rang qasrda 6-iqlim musofiri “Muqbil va Mudbir” hikoyatini aytib beradi.
- **7-hikoyat.** Juma kuni, kofuriy(oq)qasrda xorazmlik musofir “Dilorom” hikoyatini aytib beradi.





# O`ylab ko`ring!

- Jobirning aqli va tadbirkorligi qaysi o`rinlarda namoyon bo`ladi?
- Asarda Jobirning «moli harom» maqsadi bilan yashashi aytiladi. Harom mol, harom rizq tushunchasini Siz qanday izohlaysiz?
- Mehr va Suhaylni qaysi jihatlariga ko`ra bir-birlariga mos va muvofiq deb bilasiz?
- Suhaylning asir tushishi tasvirida yigitning jasorati, mardligi hamda qaroqchining hiylakorligi qanday ifodalanganini ko`rsating.
- Asarda oshiq-ma`shuqlarning fojiviy holati aks etgan: «***Yuqori dilbar-u, quyi bedil, Bir-biridin vale ikov g`ofil***» misralarini izohlang.
- Tutqunlarning ozod bo`lishida kimning xizmati ko`proq deb o`ylaysiz? Mehrningmi yoki Suhaylning?
- Nima deb o`ylaysiz, Jobir hammadan ko`proq kimga jabr qildi?
- Asardagi: «***Sayd yetgach ko`zini asrar edi, Ko`rmayin deb o`zini asrar edi***» tasviri kim va nima to`g`risida?

A vibrant illustration of a white scroll with a black border, set against a blue sky with white clouds and a green grassy field at the bottom. The scroll contains the text "E'TIBORINGIZDAN XURSANDMIZ!". The text is in a bold, sans-serif font. "E'TIBORINGIZDAN" is in red with a purple outline. "XURSANDMIZ!" is in red with a blue outline. The scroll is decorated with a green dragonfly at the top left, a yellow and orange butterfly at the top right, and two cartoon bees at the bottom left and bottom right.

**E'TIBORINGIZDAN  
XURSANDMIZ!**